

## MENING VATANIM

*Zokirjonov Muhammadqodir Ikromjon o'g'li*  
*To'raqo'rg'on tuman 1- maktab 6-sinf o'quvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va yoshlarga qaratilgan siyosat haqida qisqacha soʻz olib borib, tahlil qilingan va yoshlarning vatan taraqqiyotida tutgan oʻrni haqida muhokama olib borilgan.

**Kalit soʻzlar:** Oʻzbekiston, yoshlar, siyosat, hukumat, harakatlar strategiyasi, besh muhim tashabbus.

Oʻzbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi va bu boradagi ishlarning soʻngi 3-4 yildagi natijasini sarhisob qilish oʻzi etarlicha hayrat manbayidir. Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan boʻlib, 30 dan ortiq xaqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan<sup>1</sup>.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng koʻp yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari toʻgʻrisidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. Oʻzbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xaqlaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan oʻsib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi<sup>2</sup>.

Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati-2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan koʻprogʻi yoshlardan iborat boʻlgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama etuk va barkamol, intellektual salohiyatli, oʻz qatʻiy pozitsiyasiga ega, yurtida amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq boʻlmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, sergʻayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash Oʻzbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan oʻrin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

<sup>1</sup> <https://strategy.uz/index.phpnews=lang=uz>

<sup>2</sup> Очилова М. О., Эргашева Г. Б. Основы организации самостоятельной работы учащихся // Молодой ученый. – 2019. – №. 8. – С. 852-854.

Prezidentimiz tomonidan 2018-yil 27-iyunda imzolangan «Yoshlar-kelajagimiz» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmon ushbu sohadagi ishlar samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan muhim qonuniy hujjat bo‘ldi desak xato bo‘lmaydi. Farmonga muvofiq «Yoshlar-kelajagimiz» nomli yangi jamg‘arma tashkil etildi va ushbu jamg‘arma yoshlarning tadbirkorlik, biznes tashabbuslari, startup g‘oyalari va loyihalarini amalga oshirish maqsadida tijorat banklari yordamida yillik 7 foiz miqdordan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berishi belgilab qo‘yildi. Ushbu hujjatga e‘tibor qaratisa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganligini ko‘rish mumkin.

Muxtasar aytganda, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko‘zlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda.

Bu borada prezidentimiz tomonidan ijtomoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalardagi islohot va sa‘y-harakatlarni tasirchan tizimli asosda tashkil qilish bo‘yicha 5 ta muhim tasabbusning joriy etilgani mamlakatimizning 30 yillik mustaqillikdan keyingi tarixida yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga qaratilgan yana bir yangi progressni boshlab berdi<sup>3</sup>.

**Birinchi tashabbus**–yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san‘atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste‘dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

**Ikkinchi tashabbus**–yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

**Uchinchi tashabbus**–aholi va ba yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

**To‘rtinchi tashabbus**–yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

**Beshinchi tashabbus**–xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash masalalarini nazarda tutadi.

Yoshlarning ongi va intellektini internetning zararli axborot xurujlaridan himoya qilish va ularni axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga undash masalalari bo‘yicha nafaqat mahalliy, balki xalqaro tajribalar asosida ham diyarli barcha hududlar markazlarida IT park va RT<sup>4</sup> texnologiyalar o‘quv markazlari tashkil etilmoqda. Bu kabi markzalarda elektron tijorat bilimlari va dasturlash metodikasi bepul o‘rgatiladi, ushbu sohadagi biznesni yo‘lga qoyish bo‘yicha innovatsion malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi. Shuningdek «startup» loyihalarining amaliyotga tadbiiq etilishiga yordam ko‘rsatiladi. O‘tgan yilgi davlat dasturi bajarilishi doirasida 2021-yilgacha barcha umumiy o‘rta talim maktablardagi informatika xonalarini, sinflarini zamonaviy texnologiya va sifatli, yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i bilan ta‘minlash yuzasidan

<sup>3</sup> Эргашева Г. Б., Рахматова Г. Б. К. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46).

<sup>4</sup> Raqamli texnologiyalar

chora-tadbirlar yo'l xaritasi ishlab chiqilib, diyarli ko'plab maktablar ushbu manba bilan taminlandi. Rejalar bajarilishi doirasida etiladigan cybermarkazlar yosh avlodning dunyoqarashi va intellektual salohiyatini, kengaytirish uchun mo'ljallangan test, interfaol metodlar, rivojlanish strategiyalari va shunga o'xshash boshqa foydali dasturlar bilan ta'minlanadi<sup>5</sup>.

Yoshlar ongida kitobxonlik madaniyati va ko'nikmasini mustahkam shakllantirish maqsadida, yangi tashabbuslar doirasida viloyatlar va Qoraqalpog' Respublikasiga 1 million nusxadan ziyod miqdorda kitoblar etkazildi. Shu bilan birga, shahar va tuman markazlarida namunalii kitob do'koni tashkil etilib, «Bibliobus»lar yordamida olis qishloq va mahalla aholisiga kutubxona xizmatlarini ko'rsatish yo'lga qo'yilmoqda.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda olib borilayotgan odilona siyosatning samarasi o'laroq barcha sohalarda keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yoshlarga oida hukumar siyosatini alohida ta'kidlash joiz. Shuning uchun ham ushbu kunga, ushbu jannatmakon yurtda yashayotganimizga behisob shukrona aytib mamlakat taraqqaiyotiga o'z kuchimiz, intellektual bilim va innovatsion dunyoqarashimiz orqali hissa qo'shishni bugundanoq maqsad qilishimiz lozimdir.

### **ADABIYOTLAR**

1. Очилова М. О., Эргашева Г. Б. Основы организациии самостоятельной работы учащихся //Молодой ученый. – 2014. – №. 8. – С. 852-854.

2. Эргашева Г. Б., Рахматова Г. Б. К. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46).

3. Ismatova N. B. et al. Innovative techniques and their importance in the learning process //The Second International Conference on Eurasian scientific development. – 2014. – С. 101-104.

4. Эргашева Г. О'qituvchilarning innovatsion faoliyatini rivojlantirish //Ученый ХХИ века. – 2018. – №. 4-3.

---

<sup>5</sup> Эргашева Г. Development of teachers innovative activities //Ученый XXI века. – 2018. – №. 4-3.